

**IJTIMOIY MUNOSABATLARDA MUSIQANING AHAMIYATI**  
**Ibroximjonova Gavhar Amanbaevna - Xalqaro Nordik universiteti Musiqa**  
**ta'limi kafedrasi dotsenti v.b.**

Annotatsiya: v dannoy state rassmatrivayutsya znachenie muzыki v razvitiu obrazovaniya i sotsialnykh otnosheniy.

Klyuchevыe slova: sotsialnye obychestva, potrebnost, sotsialnoe razvitiye, muzыka, sotsialnaya rabota.

Ta'lim-tarbiya sohasini rivojlantirish, turli davlat-jamiyat ijtimoiy institutlarni shakllantirishda musiqa jamiyat rivojlanishiga ko'ra shakllanadi.

Insoniy jamiyat – katta, murakkab, ko‘p qirrali, ko‘p madaniyatli tizimdir. Aksariyat odamlar bir vaqtning o‘zida oila, ish, qo‘shnilik jamiyatni, turli ijtimoiy jamiyatlar, o‘rtoqlik, shirkatlar jamiyatida yashaydilar.

Inson – murakkab ijtimoiy mavjudot bo‘lib, unda ko‘p qirrali ijtimoiy hodisalar mavjud. Uning ijtimoiy rivojlanishi uchun musiqaning ahamiyati katta.

Musiqa fani inson o‘rganadigan fanlar orasida o‘z o‘rniga ega va insonning hayotiy dunyosini, uning tabiiy, ijtimoiy va faoliyat imkoniyatlarini takomillashtirishga harakat qiladi.

Musiqa ijtimoiy munosabatlarda zaruriy ilmiy asosni mustahkamlash, shaxsning turli yashash joylarida o‘ziga xos tarzda rivojlanishi uchun qulay axloqiy-psixologik sharoitlar yaratishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda globallashuv va integratsiya jarayonlari birinchi o‘rinda turadi, millatlararo, ijtimoiy-madaniy hamkorlik, ta’lim sohalari shaxsiy ma’nolar bilan to‘ldirilgan holda yangi turda tasdiqlanadi. Shaxsning yashash joyidagi muhit, uning ijtimoiylashuvi, axloqiy munosabatlari, xulq-atvori va muloqot qobiliyatlar, ijtimoiy faoliyat tajribasiga faol ta’sir ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda ro‘y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, ijtimoiy siyosat va ma’naviy hayotdagи barqarorlik va ijobjiy yo‘llarni izlash, jamiyatning turli tuzilmalarida shaxsning o‘z-o‘zini anglashi uchun qulay axloqiy-psixologik sharoitlar yaratish bilan bog‘liq bo‘lib, aholi bilan ijtimoiy-tarbiya ishlarini ahamiyatli va sifatli darajada yangi g‘oyalar, nazariyalar va konsepsiyalari bo‘lgan talab darajasida rivojlantirish kerakligini belgilab beradi.

Yashash joyidagi ijtimoiy-tarbiyaviy ishlarga barcha yondashuvlar, kelishmovchiliklarni mutaxassislar kuchli tarbiya vositasi sifatida tan oladilar, bunday muhit inson shaxsiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Agar odam bu muhitdan yakkalanib qolsa, u bilan muayyan hududda birga yashaydigan odamlar bilan o‘zaro hamkorlik, o‘zaro manfaatdorlik munosabatlari umumiy bo‘ladi, yoki u o‘z hayot yo‘lida uchraydigan odamlar taqdiriga mas’uliyatli, javobgar shaxs bo‘lib tarbiyalanadi. Uning hayot bilan aloqasi chuqur va mustahkam bo‘ladi. U yomon xulq-atvor, begonasirash va o‘zini yo‘qotib qo‘yishdan himoyalangan bo‘ladi. Har

doim ham oilada jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy holati va unda yuz berayotgan o‘zgarishlarga qadriyat sifatida alohida e’tibor qaratilmaydi.

Musiqa mashg‘ulotlari pedagogikaning didaktik nazariyasi va tamoyillari asosida tuziladi. Mazkur tamoyillar musiqa rahbari hamda bola tomonidan bajariladigan barcha ta’lim asoslari - mashg‘ulotlar mazmunining metodlari va mashg‘ulotlarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo‘nalishlarini belgilab beradi. Mazkur tamoyillar asosan, o‘quv materiallarini qo‘llash, musiqa mashg‘ulotlari (darslari) mazmuni va rejasini tuzish jarayonida qo‘llanadi. Yuqoridagi qayd etilgan umumdidaktik tamoyillar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, milliy xususiyatlarini asos qilgan holda musiqa faoliyati izchilligini ta’minlaydi.

Musiqa turli ijtimoiy yo‘nalishdagi harakatlar va dasturlarni yoritib beradi va amalga oshiradi, ular shaxslarning tashabbusi, ijtimoiy-pedagogik qo‘llab-quvvatlash va xayriya, tizimli axloqiy va pedagogik barqarorlik sifatlarini, odamning ijtimoiy muhitdagi insoniy munosabatlarini shakllantiradi. Shuning uchun shaxsning o‘z-o‘zini rivojlantirish samaradorligini oshirish, uning ijtimoiy muhitda va avvalo uning munosabatlarida musiqa salohiyatidan foydalanishga alohida ahamiyat beriladi.

### **Adabiyotlar:**

1. Akrashina O.A. Metodika muzlykalnogo vospitaniya v shkole. Moskva, Prosveshenie, 1983-yil.
2. Qodirov R. Boshlang‘ich mакtabda ko’p ovozli kuylash. – Toshkent, “G. G’ulom” Nomidagi adabiyot va san’at nashiryoti, 1997-yil.
3. Rajabova D. Fortepiano mashg‘ulotlari. – Toshkent, O’qituvchi, 1994-yil.
4. Qoraboyev U. O’zbek xalq o’yinlari. – Toshkent, “San’at” – 2001-yil.
5. Abralova M, Soliyeva D. Musiqa. O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma. Toshkent, G’. G’ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodi yysi, 2008 – yil.